

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV Hujjatlari saqlash va tadqiq qilishdagi xizmatlari	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVİY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVİY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQUISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Hakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhriyozda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUIJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZELOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Саидбек Махмудович</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNINI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratoli Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINFLAR O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE RIGHT TO USE THE INTERNET: THE CONCEPT OF THE INTERNET

Kudratillayev Jakhongir Zokirjon ogli

senior Lecturer of Tashkent state university of law

E-mail: j.kudratillayev@tsul.uz

jakhongir.kudratillayev.10@gmail.com

Abstract. This article is dedicated to a constitutional and legal analysis of the concept of the Internet. The role of the Internet in the modern world and its stages of development have been analyzed. The architectural structure of the Internet has been examined. It has been explained that this infrastructure serves as an environment for creating, storing, and disseminating information. It is substantiated that the current times necessitate the regulation of Internet-related relationships, and that the majority of future social interactions will take place on the Internet. Furthermore, based on an analysis of regulatory legal documents and scholarly opinions, the author has developed definitions for the concepts of “Internet” and “Internet network”.

Keywords: internet, internet network, internet usage, right to internet access, internet legal space, creation, storage, and dissemination of information.

INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI

Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Internet tushunchasini konstitutsiyaviy huquqiy tomondan tahliliga bag'ishlangan. Zamonaviy dunyoda Internetning tutgan o'rni va Internetning rivojlanish bosqichi tahlil qilingan. Internet arxitekturaviy tuzilishi o'rganib chiqilgan. Bu infratuzilma axborotni yaratish, saqlash va tarqatish muhiti vazifasini o'tay olishi tushuntirib berilgan. Internet bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishni zamonning o'zi talab qilayotgani va keyingi aksariyat ijtimoiy munosabatlar aynan Internetda bo'lishi asoslab tushuntirib berilgan. Bundan tashqari normativ huquqiy hujjatlar tahlili va olimlar fikriga asoslanib “Internet” va “Internet tarmog'i” tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: internet, internet tarmog'i, internetdan foydalanish, internetdan foydalanish huquqi, internet huquqiy maydoni, axborotni yaratish, saqlash va tarqatish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N77>

Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti jamiyat hayotining rivojlanishiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Texnika taraqqiyotining muhim natijalaridan biri “Internet” deb nomlanuvchi fenomendir. Internet jamiyat hayotining barcha sohalariga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, uning mohiyatini nafaqat kundalik hayotda, balki huquqshunoslik, xususan, konstitutsiyaviy huquq doirasida ham tushunish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

“Internet”, “Internet tarmog'i” deganda biz umumiy foydalanishdagi “Internet” axborot-telekommunikatsiya tarmog'ini tushunamiz. Internetni umumiy ma'noda “kompyuter

tarmoqlari tarmog'ini deb ta'riflash mumkin, ya'ni u kompyuterlarning yagona infratuzilmaga global birlashuvidir.

Globallik (transchegaraviylik) — Internetning asosiy xususiyati bo'lib, turli mamlakatlar va qit'alar o'rtasida madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishni hamda to'g'ridan-to'g'ri axborot almashinuvini ta'minlab beradi.

"Internet" atamasi etimologik jihatdan "interconnected networks", ya'ni "o'zaro bog'langan tarmoqlar" iborasidan kelib chiqqan (ko'pchilik o'ylaganidek "international network" yoki "xalqaro tarmoq" emas). Aynan shu tushunchaga asoslanib global tarmoq qurilgan.

Dastlab bir kompyuter boshqalaridan mustaqil ravishda ishlagan. Masalan, 1990-yillarning birinchi yarmida foydalanuvchilarning ko'p qismi axborot makonida aynan shunday "yashagan" va bir-biri bilan ma'lumotlarni dastlab disketlar orqali almashgan.

Kompyuterlarni har doim bir-biriga kabel yordamida tarmoqqa ulash imkoni bo'lgan (masalan: ma'lumot uzatish maqsadida). Bunday oddiy birlashma, kompyuter tarmog'ini hosil qiladi. Shuningdek, bunday ulanishni boshqarish uchun ma'lum dasturiy ta'minot zarur bo'ladi. Bundan tashqari, bir nechta kompyuterlar mahalliy tarmoqqa (LAN — Local Area Network) birlashtirilishi mumkin. Amalda ko'pchilik tashkilotlarda mahalliy tarmoqlar mavjud. Tarixan Internet-provayderlar ham o'z mahalliy tarmoqlarini yaratib, barcha mijozlariga ushbu tarmoq ichidagi turli xil resurslarga kirish imkoniyatini taqdim etganlar.

Bundan tashqari, bir-biriga bog'lanishi kerak bo'lgan, bitta tashkilot chegarasidan tashqaridagi katta hududda joylashgan kompyuterlar keng tarmog'iga (WAN — Wide Area Network) birlashtirilishi mumkin. Bu tarmoq mahalliy tarmoqqa qaraganda kattaroq miqyosda bo'lib, yuqori darajadagi dasturiy va texnik vositalardan foydalanishni talab qiladi. Ko'pincha mintaqaviy tarmoqlar ham shaxsiy kompyuterlarni, ham turli xil mahalliy tarmoqlarni o'z ichiga oladi va amalda ma'lum bir miqyosda "tarmoqlar tarmog'ini"ni tashkil etadi.

Internetni sodda til bilan tushuntiradigan bo'lsak, u global kompyuter tarmog'ini hisoblanadi, ya'ni barcha mavjud mahalliy tarmoqlar, mintaqaviy tarmoqlar va shaxsiy kompyuterlarning shartli ravishda texnik birlashmasidir.

Internetda ma'lumotlarni uzatishning yagona protokollari qo'llanilmaganda, bunday birlashmani ta'minlab bo'lmas edi. Bu protokollar kompyuterlarning bir-biri bilan o'zaro aloqa qilishi va ma'lumot almashishini ta'minlaydi.

Kompyuter tarmoqlarining birlashtirilishi TCP/IP (Transmission Control Protocol — ma'lumotlarni uzatishni boshqarish protokoli / Internet Protocol — tarmoqlararo protokol) protokollarining paydo bo'lishi bilan sodir bo'ldi. Ushbu protokollar kompyuterlar uchun o'ziga xos umumiy "til" bo'lib, ularning o'zaro aloqa muammosini hal qildi va zamonaviy Internetning asosini tashkil etdi [4].

Ma'lumotlar uzatish Transmission Control Protocol asosida amalga oshiriladi. Ko'p sonli ulangan qurilmalarning manzillari esa Internet Protocol yordamida aniqlanadi. Ushbu protokolga ko'ra, har bir qurilmaga o'ziga xos manzil (IP-manzil) beriladi va shu asosda ma'lumotlarning yo'nalishi va yetkazib berilishi belgilanadi. IP-manzillar sonining mumkin bo'lgan miqdori IP protokoli versiyalari bilan bog'liq.

Endi bevosita Internetning yaratilish va rivojlanish tarixiga e'tibor qaratsak. Internet tarmog'ining tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish ushbu global axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi munosabatlarni tartibga solishning tizimli huquqiy

muammolari, Internetning yuridik ahamiyatga ega xususiyatlarini yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bundan tashqari, tarmoqdagi huquqiy munosabatlarning rivojlanish dinamikasi darajasini aniqlashga yordam beradi.

Internetning yaratilish va rivojlanish tarixining birinchi bosqichini shartli ravishda **tajriba bosqichi** deb atash mumkin [5]. Bu bosqichda kompyuter tarmoqlari endigina ishlab chiqila boshlangan bo'lib, ulardan faqat ilmiy-tadqiqot maqsadlarida, shuningdek, mudofaa sohasida foydalanilgan.

Kompyuterlar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi sohasidagi dastlabki tajribalar 1960-yillarga to'g'ri keladi. Taxminan 1960-1970-yillarda turli protokollar asosida bir nechta tajribaviy tarmoqlar yaratildi: Buyuk Britaniyada Mark I, AQShda ARPANET, Fransiyada CYCLADES va boshqalar.

1974-1976-yillarda Vint Serf va Bob Kan (AQSH) TCP protokolining dastlabki variantini ishlab chiqdilar va uni zamonaviy Internetning namunasi va texnologik asosi bo'lib xizmat qilgan ARPANET — Amerika mudofaa tarmog'iga TCP/IP to'plami tarkibida joriy etdilar.

1984-yilda domen nomlari tizimi yaratildi. ARPANET terminallari soni 1000 taga yetib, iste'mol bozoriga yo'naltirilgan birinchi Internet-korporatsiya (Prodigy Communications Corporation) tashkil etildi.

Internet tarmog'ining keyingi rivojlanish bosqichini shartli ravishda **Web 1.0** atamasi bilan ifodalash mumkin. Bu davrda (1984-1990) dastlabki xususiy Internet-xizmatlar paydo bo'ldi. Web 1.0 bosqichida foydalanuvchi hali tarmoqda kontent yaratish va tarqatishda faol ishtirokchi emas edi. Asosiy rolni ko'proq veb-sayt egalari va boshqaruvchilari o'ynar edi.

1990-yilda Garvard universitetida Internetdan tijorat maqsadida foydalanishga bag'ishlangan ilk anjuman o'tkazildi. Aynan shu yili birinchi grafik brauzer ishlab chiqildi va shu davrdan boshlab tijorat aloqalarida Internetdan foydalanish ko'lamini sezilarli darajada kengaytdi. 1994-yilda esa Pizza Hut tarmog'ida ilk bor onlayn buyurtma amalga oshirildi.

Domen nomlari bozori tijoriylashtirila boshlandi. National Science Foundation bir yillik domen nomlarini 50 AQSH dollari evaziga taqdim etishni yo'lga qo'ydi.

1990-yillarning ikkinchi yarmida, texnologiyalarning rivojlanishi va Internetdan tijorat maqsadlarida foydalanishning kengayishi bilan Internet tarmog'ining uchinchi va hozirgi zamonaviy bosqichiga asta-sekin o'tish yuz berdi. Bu bosqichni **Web 2.0** atamasi bilan ifodalash mumkin. Ushbu bosqichda kontent yaratish hamda tarqatishda asosiy rollardan birini foydalanuvchilarning o'zlari o'ynay boshladi. Shunga ko'ra, axborot vositachilarining javobgarligi masalasi ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Biroq bu muammo haligacha mavjud.

1997-yilda birinchi Ultima Online — ommaviy foydalanuvchilarga mo'ljallangan to'liq grafik virtual olam paydo bo'ldi.

1998-yilda Google korporatsiyasi tashkil etildi. Buni Web 2.0 davriga o'tishning o'ziga xos ramzi deb hisoblash mumkin. Shundan so'ng, individual foydalanuvchilarga yo'naltirilgan qidiruv tizimlari va onlayn xizmatlarning jadal rivojlanishi boshlandi. Bu xizmatlar global axborot-telekommunikatsiya tarmog'i tarkibini shakllantirishda tobora muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi.

2003-2006-yillarda MySpace (2003), Facebook (2004), YouTube (2005), Twitter (2006) kabi birinchi ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'ldi.

Web 3.0 bosqichi haqida gapirish biroz erta bo'lsa-da, keyingi bosqich aynan Web 3.0 bilan bog'liq bo'ladi. Web 3.0 (Web3 deb ham ataluvchi) — bu yangi avlod internet texnologiyasi bo'lib, sun'iy intellekt (SI) va blokcheyn texnologiyasiga asoslanadi. Bu atamani Polkadot asoschisi va Ethereum hammuassisi Gevin Vud o'ylab topgan. Web 2.0 markazlashtirilgan saytlarda joylashtirilgan foydalanuvchi kontentiga e'tibor qaratsa, Web 3.0 foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlari ustidan tarmoqda to'liq nazorat o'rnatishni va'da qiladi.

Bugungi kunda Internet tarmog'i foydalanuvchilari soni o'sib bormoqda va Internetga ulangan qurilmalar soni deyarli eksponensial tarzda ko'paymoqda. Internetga ulangan qurilmalarning soni allaqachon foydalanuvchilar sonidan bir necha barobarga oshib ketgan.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 2016-yil 12,1 milliondan ortiq Internet foydalanuvchilari bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda bu raqam 31 millionga yetgan. Dunyo bo'yicha Internet foydalanuvchilari soni 5.16 mlrd kishini tashkil etadi. Internetdan foydalanish bo'yicha Xitoy (1.05 mlrd), Hindiston (692 mln) va AQSh (311.3 mln) peshqadam hisoblanishadi. Internet jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, 50 millionlik auditoriyaga ega bo'lish uchun radioga 30 yil, televideniye 13 yil, Internetga esa atigi 4 yil kerak bo'ldi[6].

Internetni faqatgina axborot uzatish vositasi sifatida ko'rib chiqish yetarli emas, garchi Internetning asosiy vazifasi dastlab shunday bo'lgan bo'lsa-da. Bugungi kunda dunyoning istalgan nuqtasidan turib, ushbu tarmoqqa turli qurilmalar (kompyuter, smartfon, avtomobil, videokamera, televizor va boshqa ko'plab jihozlar) orqali ulanish imkoniyati mavjud. Bu qurilmalar doirasi tobora kengayib bormoqda.

Huquqshunoslik ilmida Internetni alohida huquqiy makon sifatida e'tirof etiladi [7]. Ushbu huquqiy makonni hamma yerda bir xil deb bo'lmaydi. Chunki uning kundalik hayotga singib borish darajasi turlicha bo'lib, hayot sifati va moddiy farovonlik darajasi bilan bog'liqdir. Bu tabiiy hol, chunki Internetdan foydalanish uchun alohida uskuna zarur. Bunday uskunani sotib olish uchun sarmoya kerak. Shuningdek, tarmoqqa ulanish imkoniyati ham talab etiladi, bu esa o'z navbatida moddiy resursni taqozo qiladi. Axborot uzatishni ta'minlaydigan tegishli infratuzilma (tarmoqqa statsionar va mobil kirish uchun mo'ljallangan) ham zarur. Ushbu omillarning barchasi moddiy xarajatlarni keltirib chiqarmoqda. Barbara Devidson tomonidan 2020-yilda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, turli davlatlarda statsionar Internetga ulanish narxi davlatdagi o'rtacha ish haqining 0,68 foizidan 2792,56 foizigacha oralig'ida tebranib turadi [8].

Internet tushunchasining konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan tahliliga o'tsak. Ijtimoiy fanlarda Internetning aniq ta'rifini topish qiyin. Deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu konsepsiyaning xilma-xilligi va noaniqligi haqida gapirishadi. Ya'ni, Internetni "global kompyuter tarmog'i", [9] [10] "texnik", [11] "ma'lum bir axborot makoni" [12] [13] [14] va "global ommaviy axborot vositalari" sifatida talqin qilishadi.

V.I. Shalakning Internet haqidagi fikrlari bilan tanishadigan bo'lsak, u Internetning eng muhim vazifalaridan biri odamlar o'rtasidagi muloqot funksiyasi ekanligini ta'kidlaydi [15].

I.Rustambekov o'z tadqiqotlarida Internet tarmog'ini faqat aloqa vositasi sifatida ta'riflaydi [16].

Tadqiqotchi Yovan Kurbaliyya Internet haqida quyidagilarni ta'kidlaydi, "Internet zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va madaniy tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U ta'sir qilmagan ijtimoiy hayot sohasini topish qiyin bo'lib qoldi. Internet bizning hayotimizga ijtimoiy

muloqotning yangi modellarini olib keldi, til to'siqlarini yo'q qildi va ijodiy ifodaning yangi shakllarini yaratdi. Bular Internet ta'sir o'tkazgan sohalarining bir nechmalariga misol bo'la oladi xolos. Internet insoniyatga muloqot va o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini berdi va pirovardida inson huquqlarini an'anaviy tushunishga ta'sir ko'rsatdi. Internet bilan bog'liq inson huquqlarining asosiy to'plami shaxsiy daxlsizlik, so'z erkinligi, axborot, ta'lim, madaniyatni himoya qiluvchi turli huquqlarni o'z ichiga oladi"[17].

M.A.Pogorelovaning konstitutsiyaviy huquq bo'yicha dissertatsiya ishida Internetga ta'rif berishga harakat qilingan. Bu yerda Internet – “umumiy foydalanishdagi global axborot-telekommunikatsiya tarmog'i” deb ta'riflanadi. Internet axborot-texnik, kompyuter-dasturiy va kibernetik-mantiqiy tizimlarni yagona axborot makoniga va yagona arxitekturaga birlashtiradi. Bu tizim mustaqil tuzilmaviy-tarmoq va alohida axborot resurslarini (Internet-saytlarni) o'z ichiga oladi. Ushbu resurslar ularni aniqlashtirish imkonini beruvchi domen manzillari bilan belgilanadi va ushbu tarmoqqa dasturiy-texnik jihatdan ulangan serverlar hamda boshqa kompyuter texnik qurilmalarida joylashtiriladi. Resurslar o'rtasidagi dasturiy bog'lanish maxsus dasturiy protokollar (shu jumladan, ma'lumotlarni uzatish/qabul qilish protokollari) asosida amalga oshiriladi. Bunda domen-manzil asosiy rol o'ynaydi. Bu esa bunday axborot resurslariga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita (provayder orqali) kirishni ta'minlaydi. Kirish gipermatn (gipermedia) texnologiyalari, axborot qidirish texnologiyalari va domen nomlari texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, Internet elektron pochta, chat va boshqa kompyuter-dasturiy xizmatlar orqali axborot almashinuvini ta'minlaydi [18].

Mazkur ta'rif kamchiliklardan xoli bo'lmay, allaqachon eskirib qolgan. Unda “axborot resursi” va “Internet-sayt” tushunchalari o'rtasida o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Aslida Internetga ulangan har qanday qurilma ham Internet-sayt bilan o'zaro aloqa qilish uchun mo'ljallanmagan. Masalan, smartfonda messenjerdan foydalanish kabi holatlar mavjud.

Milliy qonunchiligimizda Internet tarmog'iga nisbatan turlicha munosabatlar mavjud. Xususan, “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi[1] qonunga ko'ra, Internetga ommaviy axborot tarqatish manbasi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to'g'risida”gi[2] va “Axborotlashtirish to'g'risida”gi[3] qonunlarida Internetga butunjahon axborot tarmog'i sifatida ta'rif berilgan. Ya'ni, Internetni axborot uzatish vositasi yoki aloqa vositasi sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida Internetga alohida ta'rif berilmagan. Amaldagi qonun hujjatlarida Internet tushunchasini kompleks ravishda ta'riflanmagan. Internetning u yoki bu xususiyatlari turli normativ huquqiy hujjatlarda tarqoq holda izohlangan.

Umuman olganda, Internet axborot-texnologik hodisa bo'lib, u kompyuter tarmoqlari tarmog'i, ya'ni kompyuterlarning yagona global infratuzilmaga birlashuvidir. Bu infratuzilma axborotni yaratish, saqlash va tarqatish muhiti vazifasini o'tay oladi. Tarmoqqa ma'lumot almashish uchun bir-biriga ulangan kompyuterlar singari, Internet texnologiyasi butun tarmoqlarni yaxlit bir tizimga birlashtiradi.

Yuqoridagi olimlar qarashlari va normativ huquqiy hujjatlar tahliliga asoslanib “internet” tushunchasiga mualliflik ta'rifini berishga harakat qilamiz. *“Internet — bu umumiy foydalanishdagi global axborot-telekommunikatsiya tarmog'i bo'lib, ko'plab mahalliy, mintaqaviy va shaxsiy kompyuter tarmoqlarini yagona axborot makoniga bog'lashni ta'minlaydi.*

Uning ishlashi maxsus dasturiy protokollardan foydalangan holda axborot va texnik resurslarning tizimli integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu esa domen manzillari va gipermatn texnologiyalari yordamida turli xil resurslarga kirish, shuningdek, elektron pochta, chatlar va boshqa tarmoq xizmatlari orqali ma'lumot almashish imkonini yaratadi. Internet insonlarga axborot almashish, muloqot qilish, ma'lumotlarni izlash va olish, shuningdek, turli xil xizmatlar va ilovalardan foydalanish imkonini beradi".

Umumiy xulosalar:

1. Internetning yaratilish va rivojlanish bosqichlari:
 - **tajriba bosqichi (1960-1984)** — Bu bosqichda kompyuter tarmoqlari endigina ishlab chiqila boshlangan bo'lib, ulardan faqat ilmiy-tadqiqot maqsadlarida, shuningdek, mudofaa sohasida foydalanilgan.
 - **Web 1.0 bosqichi (1984-1990)** — Web 1.0 bosqichida foydalanuvchi hali tarmoqda kontent yaratish va tarqatishda faol ishtirokchi emas edi. Asosiy rolni ko'proq veb-sayt egalari va boshqaruvchilari o'ynar edi.
 - **Web 2.0 bosqichi (1990-2024)** — Ushbu bosqichda kontent yaratish hamda tarqatishda asosiy rollardan birini foydalanuvchilarning o'zlari o'ynay boshladi. Shunga ko'ra, axborot vositachilarining javobgarligi masalasi ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Biroq bu muammo haligacha mavjud.
 - **Web 3.0 bosqichi** — bu bosqich haqida gapirish biroz erta bo'lsa-da, keyingi bosqich aynan Web 3.0 bilan bog'liq bo'ladi. Web 3.0 (Web3 deb ham ataluvchi) — bu yangi avlod internet texnologiyasi bo'lib, sun'iy intellekt (SI) va blokcheyn texnologiyasiga asoslanadi. Bu atamani Polkadot asoschisi va Ethereum hammuassisi Gevin Vud o'ylab topgan. Web 2.0 markazlashtirilgan saytlarda joylashtirilgan foydalanuvchi kontentiga e'tibor qaratsa, Web 3.0 foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlari ustidan tarmoqda to'liq nazorat o'rnatishni va'da qiladi.
2. Internet — umumiy foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuter tarmoqlari tizimi bo'lib, quyidagi xususiyatlari tufayli umuminsoniy qadriyat va inson huquqlarining obykti sifatida qaralishi mumkin:
 - shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun taqdim etilayotgan imkoniyatlarning keng ko'lami;
 - global axborot jamiyati a'zolari uchun o'zaro hamkorlik muhiti;
3. Internet — bu umumiy foydalanishdagi global axborot-telekommunikatsiya tarmog'i bo'lib, ko'plab mahalliy, mintaqaviy va shaxsiy kompyuter tarmoqlarini yagona axborot makoniga bog'lashni ta'minlaydi. Uning ishlashi maxsus dasturiy protokollardan foydalangan holda axborot va texnik resurslarning tizimli integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu esa domen manzillari va gipermatn texnologiyalari yordamida turli xil resurslarga kirish, shuningdek, elektron pochta, chatlar va boshqa tarmoq xizmatlari orqali ma'lumot almashish imkonini yaratadi. Internet insonlarga axborot almashish, muloqot qilish, ma'lumotlarni izlash va olish, shuningdek, turli xil xizmatlar va ilovalardan foydalanish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида” 15.01.2007 йилдаги ЎРҚ-78-сон Қонуни. // Электрон манба: <https://lex.uz/docs/1106870>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Телекоммуникациялар тўғрисида” ги” 20.08.1999 йилдаги ЎРҚ- 822-I-сон Қонуни. // Электрон манба: <https://lex.uz/acts/33150>
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида” 11.12.2003 йилдаги ЎРҚ-560-II-сон Қонуни. // Электрон манба: <https://lex.uz/acts/83472>
4. Бройдо В. Л., Ильина О. П. Архитектура ЭВМ и систем : учеб. для вузов. 2-е изд. СПб. : Питер, 2009. С. 623.
5. Fontanelli F. The Court of Justice of the European Union and the Illusion of Balancing in Internet-related Disputes // The Internet and Constitutional Law. The Protection of Fundamental Rights and Constitutional Adjudication in Europe / ed. by O. Pollicino, G. Romeo. London; New York, 2016. P. 101.
6. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы. Москва. Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2003. с.19.
7. Анисимова А.С. Механизм правового регулирования Интернет-отношений: проблемы теории и практики / А.С. Анисимова. Дисс... канд. юрид. наук. Саратов, 2019. С.36.
8. Barbara Davidson. Which Countries Have the Most Affordable Internet? // URL: <https://www.netcredit.com/blog/which-countries-have-most-affordable-Internet/>
9. Петровский С. В. Правовое регулирование оказания Интернет-услуг: Дисс... канд. юрид. наук. М., 2002. С. 22.
10. Информатика: Учебник. 3-е изд., перераб. / Под ред. Н.В. Макаровой. М.. 2002.
11. Петровский С.В. «Категория “Интернет” в Российской правовой доктрине» // Юриспруденция. 2002. № 1. С. 14.
12. Симонович С.В. и др. Информатика: Базовый курс. СПб, 2001. С. 43.
13. Симонович С., Евсеев Г. Новейший самоучитель по работе в Интернете. М, 2000. С.102.
14. Дудко О.Н, Государственное регулирование информационных потоков в российском сегменте сети Интернет: Дис... канд. полит, наук. М., 2002. С. 33.
15. Шалак В.И. Логический анализ сети Интернет: Дис. ... докт. философ, наук: 09.00.07 / Институт философии РАН. М., 2008. С. 2.
16. Рустамбеков И. Интернет тармоғида фуқаролик-хуқуқий муносабатларни тартибга солиш муаммолари. Монография. Тошкент - 2017 // Электрон манба: https://drive.google.com/file/d/1Jji62MkgxygkDsYE36Rx4ITHFK_yEjUD/view
17. Курбалийя Й. Управление Интернетом / Координационный центр национального домена сети Интернет. - М., 2010. - С. 136.
18. Погорелова М.А. Конституционные гарантии свободы слова и права доступа к информации в сети Интернет. дисс. канд. юрид. наук: 12.00.02. М., 2010. С. 21.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).